

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

SOBIROV ZARIFBOY AXMEDOVICH

**METRIK GRAFLARDA DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN
TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA DOKTORLIK (DSc)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc) по физико-
математическим наукам**

**Content of doctoral dissertation (DSc) abstract on
physical-mathematical sciences**

Sobirov Zarifboy Axmedovich

Metrik graflarda differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari
masalalar.....3

Собиров Зарифбой Ахмедович

Прямые и обратные задачи для дифференциальных уравнений на
метрических графах.....27

Sobirov Zarifboy Akhmedovich

Direct and inverse problems for differential equations on metric
graphs.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works57

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

SOBIROV ZARIFBOY AXMEDOVICH

**METRIK GRAFLARDA DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN
TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA DOKTORLIK (DSc)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/FM264 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://kengash.mathinst.uz>) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘iga <http://www.ziynet.uz/> joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Ashurov Ravshan Radjabovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Taxirov Jozil Ostanovich fizika-matematika fanlari doktori, professor Kulaev Ruslan Chermenovich fizika-matematika fanlari doktori, professor Kadirkulov Baxtiyor Jalilovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 25 iyun soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (184-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “11” iyun kuni tarqatildi.
(2024-yil “11” iyun dagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).



O. A. Roziqov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.-m.f.d., akademik

J. K. Adashev
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A. A. Azamov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.,
akademik

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi vaqtlarda fanning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri differensial tenglamalarni metrik graflarda tadqiq etish hisoblanadi. Tarmoqlangan nozik tuzilmalar va metrik graflar ko‘plab amaliy masalalarni nazariy o‘rganishda model sifatida qo‘llaniladi. Ular zamonaviy fizika, biologiya, ekologiya, sotsiologiya, iqtisod va moliya sohasidagi ko‘plab murakkab tizimlarni o‘rganishda ishlatiladi. Misol uchun, metrik graflardagi boshlang‘ich va boshlang‘ich-chegaraviy masalalar tarmoqlangan tuzilmalar va tarmoqlardagi diffuzion va to‘lqinli jarayonlarni nazariy o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Ta’kidlash joizki, yulduzsimon graf har qanday bog‘langan metrik graf uchun elementar qism sifatida muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni bunday oddiy grafda o‘rganish grafning ma’lum tarmoqlanish nuqtasida tarqalish tabiatini tushunish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda kasr hosilali tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalarni o‘rganishga qiziqish sezilarli tarzda oshganini kuzatamiz. Bu turli fan sohalaridagi diffuziya va dispersiya bilan bog‘liq jarayonlarning o‘rganilishida kasr-integral hisobning qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Matematik fizika va differensial tenglamalarning bu sohadagi eng dolzarb muammolaridan biri murakkab tarmoqlangan tuzilmalarda subdiffuziya jarayonlarini tadqiq etishdan iborat. Bunday masalalar, masalan, asab tizimlarida impuls tarqalishini o‘rganishda, anomaliyani hisobga olganda murakkab tarmoqlangan tuzilmalarda issiqlikning anomal tarqalishini o‘rganishda vujudga keladi.

O‘zbekistonda zamonaviy fanda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan differensial tenglamalar va matematik fizikaning zamonaviy muammolariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu jumladan, tarmoqlangan tuzilmalarda tenglamalarni o‘rganishga, kasr hosilali tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu yo‘nalish dunyo ilm-fanida nisbatan yangi bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekiston olimlari bu sohada sezilarli natijalarga erishishdi va ularni faol tadqiq etishda davom etmoqdalar. Matematika fanlarining, xususan, differensial tenglamalar va matematik fizikaning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha dunyo standartlari darajasida ilmiy izlanishlar olib borish V.I.Romanovskiy nomidagi matematika Instituti faoliyatidagi asosiy masaladir¹. Metrik graflarda berilgan butun va kasr hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni tadqiq etishni rivojlantirish differensial tenglamalar va matematik fizikaning zamonaviy nazariyasidagi muhim yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

sonli qarori, 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4708-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Metrik graflarda berilgan differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni o‘rganish Voronej davlat universiteti (Rossiya), Istiqbolli tadqiqotlar xalqaro maktabi (SISSA, Italiya), Hagen Universiteti (Germaniya), Fridrix Aleksandr Erlanger Universiteti – Nyurnberg (Germaniya), Milan Universiteti (Italiya), Matematik fizika va amaliy matematika Dopler instituti (Chexiya), Ferbenksdagi Alyaska Universiteti (AQSH), Veytsman ilmiy instituti (Isroil), RFA Janubiy matematika instituti (Rossiya), Stokgolm universitetining Matematika instituti (Shvetsiya), MakMaster universiteti (Kanada) kabi ko‘plab yetakchi ilmiy-tekshirish institutlari va universitetlari olimlari tomonidan olib boriladi.

So‘nggi yillarda graflar va tarmoqlangan tuzilmalarda berilgan differensial tenglamalar nazariyasi bo‘yicha bir qancha muhim natijalarga erishildi. Xususan, quyidagi ilmiy natijalar olindi: transmissiyaning umumlashtirilgan-silliq sharoitida to‘lqin tenglamalari uchun sodda graflar bo‘yicha Dalember formulasining analogi olindi (Voronej davlat universiteti), ikkita dokritik fokuli nochiziqli hadli: standart kuch qonuni chiziqli bo‘lmagan va uchida joylashgan delta-tipdagi nochiziqlilik bo‘lgan yulduzsimon graflarda nochiziqli Shryodinger tenglamasining asosiy holatlarining mavjudligi o‘rganildi (SISSA, Milan universiteti), kompakt metrik graflarda laplasianning spektral bo‘shliqlari uchun yuqori chegaralar olindi, sikl va ikkita ulangan qirrali metrik grafda berilgan to‘lqin tenglamasining aniq nazorat qilinishi isbotlandi (Fridrix Aleksandr Erlanger Universiteti – Nyurnberg, Alyaska Feyrbanks universiteti, Stokgolm universiteti matematika instituti), sterjen tugunlarida elastik bo‘g‘imli ulangan tizimning deformatsiyasini modellashtiruvchi geometrik grafda berilgan to‘rtinchi tartibli differensial tenglama uchun chegaraviy masalaning xos qiymatlari karraliligi bahosi olindi va spektr nuqtalarining soddaligi shartlari o‘rnatildi (Janubiy matematika instituti), spektrni sonli hisoblagan holda magnit maydondagi kvadrat panjarali graflarda yuqori energiyalarda magnit maydon ustunlik qilishi ko‘rsatildi (Doppler matematik fizika va amaliy matematika instituti).

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Graflarda berilgan differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni tadqiq etish ilk bor rus matematiklari Yu.V.Pokorniy, O.M.Penkin va ularning o‘quvchilarining ishlarida uchraydi. O‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab ular tarmoqlangan sohalarda berilgan ikkinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalaning yechimga egaligini o‘rganishgan, bu masalalar uchun Grin funksiyasini qurishgan, geometrik graflarda Shturm-Liuivill masalasini tadqiq qilishgan va graflarda Shturm-Liuivill nazariyasining to‘la analogini qurishgan. Ular

bilan deyarli bir vaqtda chex olimlari P.Eksner va P.Seba graflarda berilgan klassik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o'rgana boshlashgan. Graflarda berilgan differensial tenglamalar nazariyasini o'rganishga bo'lgan keyingi turtki bunday masalalarning kvant fizikasi va mexanikaga bo'lgan yangi tatbiqlari bilan bog'liq. 2000-yillar boshlarida Uzi Smilanski, Tsampikos Kottos va Sven Gnutsmanlar kvant grafi tushunchasini kiritishdi va kvant xaosi, sochilish xossarini va grafda berilgan laplasian yordamida shu graflaning spektral statistikasini tadqiq qila boshlashdi. Ruslan Kulayev tomonidan tugunlarda qattiq bog'lanish shartlari bilan tekis sterjenli tizimining elastik deformatsiyalarini modellashtiruvchi grafda berilgan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masala yechimining nomanfiyligi va noassilyatsion xarakteri o'rganildi va masalaning Grin funksiyasi qurildi.

Real murakkab tarmoqlangan tuzilmalar, metrik graflardan farqli o'laroq, har bir alohida tarmoq va ulanish nuqtasi nolga teng bo'lmagan kesim yuziga ega. Shuning uchun, kesim yuzi yetarlicha kichik bo'lganda bunday tizimlarni metrik graflar bilan yaqinlashtirish masalasi muhim sanaladi. Pavel Eksner va Olaf Post o'z ishlarida ko'pxillikning nozik tarmoqlanishlarida Shryodinger tenglamasi yordamida graf uchidagi ulanish shartlarini yaqinlashtirish mumkinligini isbotladilar. Dell'Antonio va Kostaning ishlarida kvant tizimi evolyutsiyasining past energiyali qismini eng yaxshi tavsiflovchi dinamik tizimni olish uchun tanlanishi kerak bo'lgan yulduzsimon grafning uchidagi chegaraviy shartlarni tavsiflab o'tilgan. Karrali xarakteristikali uchinchi tartibli tenglama uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarni o'rganish italyan matematigi L.Kattabriga, o'zbek matematiklari T.D.Jo'rayev va S.Abdinazarovlarning ishlaridan boshlangan. Ular o'z ishlarida bunday tenglamalar uchun potensiallar nazariyasini qurganlar va bu natijalarni fazoviy o'zgaruvchiga nisbatan toq tartibli yuqori hosilalarga ega bo'lgan tenglamalar holatiga umumlashtirganlar. Birinchi marta metrik graflardagi bunday tenglamalar biz tomonimizdan 2015-yilda o'rganilgan va bunda grafning ichki uchida ulanish (Kirxgoff) shartlarini qanday to'g'ri aniqlash usuli berilgan. Shuningdek, 2018-yildan boshlab paydo bo'lgan D.Mugnolo, D.Noya, Ch.Seifertning Eyri tipidagi tenglamalar va M.Kavalkantening chiziqli bo'lmagan Korteveg-de Friz tenglamasi bo'yicha ishlarida olgan natijalarini ham qayd etib o'tishimiz kerak. 2017-yildagi A.V.Psxuning O'zbek matematika jurnalida chop etilgan maqolasida karrali xarakteristikali va vaqt bo'yicha kasr hosilaga ega uchinchi tartibli tenglama uchun fundamental yechim qurilgan. Graflarda vaqt bo'yicha kasr hosilali Eyri tipidagi tenglama uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar adabiyotlarda uchramaydi va dissertatsiya ishida birinchi marta o'rganilmoqda.

Keyingi yillarda ko'plab yetuk olimlar, jumladan, yurtdoshlarimiz Sh.A.Alimov, R.R.Ashurov, B.Qodirqulov, E.Karimov va boshqalar kasr hosilali tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalarni o'rganishga faol kirishdilar. Bu ko'p jihatdan kasr hosilali tenglamaning, xususan, subdiffuziya tenglamasining fizika, biologiya, mexanika, kimyo va boshqa sohalardagi ko'plab amaliy masalalarning matematik modeli sifatida qo'llanilishi bilan bog'liq. Metrik graflarda kasr hosilali differensial tenglamalar anomal jarayonlarni, xotira effektini hisobga olish kerak bo'lgan jarayonlarni yanada aniqroq tasvirlash imkonini beradi. Metrik graflarda vaqt bo'yicha kasr hosilali subdiffuziya tenglamalari yaqindan o'rganila boshlandi. Oxirgi besh yil ichida

G.Leugering, V.Mehandar, M.Mehraning bir qancha ishlari e'lon qilindi. Ular o'z ishlarida yulduzsimon grafda berilgan tenglamalar uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarning yechimga ega ekanligini tadqiq qilganlar va bunday masalalarda chegaraviy boshqaruv masalasini o'rganganlar.

Dissertatsiya ishining ilmiy-izlanish rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining "Differensial tenglamalar va ularning tatbiqlari" laboratoriyasining ilmiy-tadqiqot ishlarining rejadagi mavzulari, institutning F-FA-2021-424 raqamli "Butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish" mavzusidagi fundamental loyihasi, O'zbekiston Milliy universitetidaning №14-022 RG/MATHS/AS_G; UNESCO FR:324028610 raqamli xorijiy ilmiy-tadqiqot loyihasi hamda Germaniyaning Oldenburg universitetida bajarilgan Folksvagen fondining "Mezoskopik fizikadan kelib chiqadigan noxiziqli evolyutsion tenglamalar va metrik graflarda transport masalalari" mavzusida xorijiy grant loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi metrik graflarda berilgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar va teskari masalalarni yechish usullarini ishlab chiqish va mavjud metodlarini umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

metrik graflarda berilgan Eyri tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarning yagona yechimga ega ekanligini o'rganish;

yarim cheksiz qirrali ochiq sodda metrik grafda Eyri tipidagi tenglama uchun Koshi masalasi yechimining integral ko'rinishini qurish;

metrik graflarda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar yechimlarini tadqiq qilish;

teng qirrali metrik graflarda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarning Grin funksiyalarini qurish;

daraxtsimon grafda issiqlik tarqalish tenglamasi va Shryodinger tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar yechimlarining integral ifodalarini Fokas usulida qurish;

metrik graflarda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun to'g'ri va teskari masalalarning Sobolev fazolarida global bir qiymatli yechilishini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obykti. Metrik graflarda berilgan butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar.

Tadqiqotning predmeti. Graflarda boshlang'ich-chegaraviya masalalar, tenglama o'ng tomonini aniqlashga doir teskari masalalar.

Tadqiqotning usullari. Masalalarni o'rganishda potentsiallar usuli, integral tenglamalar usuli, Furye usuli, integral almashtirishlar usuli, aprior baholash usuli, funksional analiz va operatorlar nazariyasi usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yulduzsimon grafda berilgan Eyri tipidagi kasr tartibli tenglama uchun Koshi masalasining korrektiligi isbotlangan hamda boshlang'ich shart va tenglamaning o'ng tomoni orqali yechimning aniq integral ifodasi qurilgan;

vaqt bo'yicha kasr tartibli hosilali Eyri tipidagi tenglamalar boshlang'ich-chegaraviy masalalarni yechishning potentsillar usuli metrik graflar uchun

umumlashtirilgan va Eyri tenglamasi uchun birinchi boshlang'ich-chegaraviy masalaning yagona yechimga ega ekanligi isbotlangan;

yulduzsimon va zinapoyasimon grafda berilgan vaqt bo'yicha kasr hosilali parabolik tenglamalar uchun birinchi, ikkinchi va aralash chegaraviy masalalarning Grin funksiyalari qurilgan hamda Fokas usuli yordamida issiqlik tarqalish va Shrodinger tenglamalari uchun sodda metrik graflarda chegaraviy masalalar yechimlarining integral ifodalari olingan;

chekli bog'lamli metrik grafda Xilfer tipidagi kasr tartibli hosilali psevdosubdiffuziya tenglamasi uchun ikkita teskari masala bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

Sobolev fazolarida yulduzsimon grafda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun to'g'ri va teskari masalalarning global yagona yechimi mavjudligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiya ishida olingan natijalar nazariy xarakter kasb etib olingan natijalar tarmoqlangan tuzilmalarda to'liq va diffuzion jarayonlarni tadqiq qilishda muhim boshlang'ich nuqta bo'lib, bunday murakkab tuzilmalarda tarmoqlanish nuqtasida tarqalish jarayonini tushunish uchun foydali bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining va xulosalarining ishonchliligi differensial tenglamalar, matematik analiz, funksional analiz va operatorlar nazariyasi metodlariga asoslangan qat'iy matematik isbotlar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati metrik graflarda berilgan differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar nazariyasini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarmoqlangan tuzilmalarda to'liq tarqalishni matematik modellashtirishda, tarmoqlanish nuqtasida o'tish va qaytish koeffitsientlarini hisoblashda, asab tizimlarida impulsning tarqalish jarayonini matematik modellashtirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Metrik graflarda differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar bo'yicha olingan natijalar asosida:

subdiffuziya tenglamasi va vaqt bo'yicha kasr tartibli hosilali Eyri tipidagi tenglama uchun metrik graflarda boshlang'ich-chegaraviy masalalar bo'yicha olingan natijalardan NIOKTR 122041800029-5 raqamli "Asosiy va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va boshqaruv masalalari va taqsimlangan parametrlil tizimlarni tadqiq qilish" mavzusidagi xorijiy loyihasida vaqt bo'yicha kasr hosilali to'liq va diffuziya tenglamalarini yechishda foydalanilgan (Rossiya Fanlar Akademiyasi Kabardin-Balkar ilmiy markazining amaliy matematika va avtomatlashtirish institutining 2024 yil 9-apreldagi №24-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi vaqt bo'yicha kasr hosilali to'liq va diffuziya tenglamalari va tenglamalar sistemalari uchun lokal va nolokal masalalarni yechishni va yechimning integral ifodasini olish imkonini bergan;

Sobolev fazolarida yulduzsimon grafda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun to'g'ri va teskari masalalarning global yechimidan AR09259394 raqamli "Musbat operatorli evolyutsion tenglamalar uchun teskari masalalar" mavzusidagi xorijiy loyihasida vaqtli kasr hosilali issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal chegaraviy va

teskari manba masalasini yechishda foydalanilgan (Matematika va matematik modellashtirish institutining 2024 yil 2-apreldagi №01-06/061-sonli ma'lumotnomasi, Qozog'iston). Ilmiy natijaning qo'llanishi kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun teskari masalalarni yechish algoritmlarini qurish va bunday masalalarning yechimga ega ekanligini isbotlash imkonini bergan;

yulduzsimon grafda berilgan Eyri tipidagi kasr tartibli tenglama uchun Koshi masalasi qo'yilishi hamda boshlang'ich shart va tenglamaning o'ng tomoni orqali yechimning aniq integral ifodasidan xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarda Airy va Korteweg-de Friz tenglamalari uchun chegaraviy masalalarni yechishda foydalanilgan (Analysis&PDE, 2018, 11 (7), 1625-1652; Zeitschrift fur Angewandte Mathematik und Physik, 2018, 69 (5), 124; Nonlinearity, 2020, 34 (5), 3373-3410). Ilmiy natijalarni qo'llanishi metrik graflarda Eyri va Korteweg-de Vries tenglamalari uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarni yechishning imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 39 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shundan 17 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, 10 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan, 7 tasi respublika jurnallarida chop etilgan ilmiy maqolalardir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruratini asoslash, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy mutaxassislar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarga taqriz berilgan va mahalliy olimlar tomonidan masalaning o'rganilganlik darajasi, maqsad, vazifalar, tadqiqot obyekti va predmeti, ilmiy yangilik bayoni, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, asosiy natijalarni amalga oshirish to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan va nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida vaqt bo'yicha butun va kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar qaralgan. Qo'yilgan masalalarni yechishda potentsiallar usuli va energiya integrallari usuli qo'llanilgan.

Birinchi va ikkinchi paragraflarida metrik graflar va kasr tartibli hosilalarga, vaqt bo'yicha butun va kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun potentsiallar nazariyasiga oid dastlabki ma'lumotlar berilgan.

Uchinchi paragrafida grafning uchi deb ataluvchi O nuqtada kesishgan $m + k$ ta yarim cheksiz qirralardan tashkil topgan Γ yulduzsimon grafda Eyri tenglamasi uchun Koshi masalasi tadqiq etilgan. Graf qirralarini $B_j, j = 1, 2, \dots, k + m$ orqali belgilaymiz. Har bir B_j qirrada x_j koordinatani $j = \overline{1, k}$ bo'lganida $-\infty$ dan 0 gacha,

$j = \overline{k+1, k+m}$ bo‘lganida $-\infty$ dan 0 gacha aniqlaymiz. Grafning har bir qirrasida 0 koordinata graf uchidagi O nuqtaga mos keladi (1-rasm).

Γ grafning har bir qirrasida ushbu

$$\partial_{0,t}^\alpha u_j(x,t) - \frac{\partial^3}{\partial x^3} u_j(x,t) = f_j(x,t), \quad 0 < t \leq T, \quad x \in B_j, \quad (1)$$


bu yerda $0 < \alpha \leq 1$, Kaputo tipidagi kasr hosilali Eyri tenglamasini va quyidagi

$$u_j(x,0) = \phi_j(x), \quad x \in \overline{B_j}, \quad j = \overline{1, k+m} \quad (2)$$

boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi yechimini qidiraylik. Bunda kasr tartibli integral va kasr tartibli Kaputo hosilalari quyidagicha aniqlanadi:

$$D_{0,t}^{-\alpha} g(t) \equiv I_{0,t}^\alpha g(t) := \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_0^t \frac{g(\xi)}{(t-\xi)^{1-\alpha}} d\xi, \quad \alpha > 0, t > 0,$$

$$\partial_{0,t}^\alpha g(t) := \frac{1}{\Gamma(\alpha)} \frac{d}{dt} \int_0^t \frac{g(\xi) - g(0)}{(t-\xi)^{\alpha-n+1}} d\xi, \quad 0 < \alpha < 1, t > 0.$$



1-rasm. Γ yulduzsimon graf.

Ma’lumki, Eyri tenglamasining kesmada bir qiymatli yechilishi uchun boslang‘ich shartdan tashqari uchta shart – ikkita chap uchida va bitta o‘ng uchida chegaraviy shartlar berish kerak. Demak, $m + k$ ta yarim cheksiz qirrali graf bo‘lgan holatda graf uchida $k + 2m$ ta ulanish shartlarini berish kerak bo‘ladi. Bu shartlarni quyidagicha aniqlaymiz:

$$a_j u_j(0,t) = u_1(0,t), \quad 0 \leq t \leq T, \quad j = \overline{2, k+m}, \quad (3)$$

$$u_x^+(0,t) = B u_x^-(0,t), \quad 0 \leq t \leq T, \quad (4)$$

$$\sum_{j=1}^k \frac{1}{a_j} \frac{\partial^2}{\partial x^2} u_j(x,t) \Big|_{x=0} = \sum_{i=k+1}^{k+m} \frac{1}{a_i} \frac{\partial^2}{\partial x^2} u_i(x,t) \Big|_{x=0}, \quad 0 \leq t \leq T, \quad (5)$$

bu yerda $a_1 \equiv 1, a_j \neq 0, j = \overline{1, k+m}$,

$u^- = (u_1, u_2, \dots, u_k)^T$, $u^+ = (u_{k+1}, u_{k+2}, \dots, u_{k+m})^T$ B -matritsa $m \times k$ o'ldamli o'zgaras matritsa. Shuningdek $u = (u_1, u_2, \dots, u_{k+m})^T$. belgilashdan foydalanamiz. Bundan tashqari, $\phi_j(x)$, $j = \overline{1, k+m}$, funksiyalar yetarlicha silliq va chegaralangan funksiyalar va (3) shartlarni qanoatlantirishini talab qilamiz. (5) ko'rinishidagi shart grafning tarmoqlanish nuqtasida oqimning lokal saqlanishini ifodalaydi va odatda Kirxgoff sharti deb ataladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi (3) – (5) ulanish shartlari mumkin bo'lgan yagona shartlar emas. Bizning tanlovimiz uchun asosiy turtki, ular yechimning yagonaligini ta'minlashi va agar yechimlar cheksizda (nolgacha) so'nsa, normaning (energiya) saqlanishini ta'minlashi bilan bog'liq.

1-masala. (1) tenglamaning (2) boshlang'ich, (3) – (5) ulanish shartlarini qanoatlantiruvchi

$$Q_1(\Gamma) = \{u = (u_1, u_2, \dots, u_{k+m}) : u_j \in C^{3,0}(B_j \times (0, T]), \partial_{0,t}^\alpha u_j \in C(B_j \times (0, T]), \\ u_j \in C^{2,0}(\overline{B_j} \times [0, T]), j = \overline{1, k+m}\},$$

sifga tegishli yechimi topilsin.

1-teorema. $(B^T B - E)$ simmetrik matritsa ixtiyoriy $\zeta = (\zeta_1, \zeta_2, \dots, \zeta_k)^T \in R^k$ uchun $\zeta^T \cdot (E_k - B^T B) \cdot \zeta \geq 0$ shartni qanoatlantirsin, bunda E_k - k -tartibli birlik matritsa. U holda 1-masala bittadan ortiq yechimga ega bo'lmaydi.

Bu teorema energiya integrallari metodi bilan isbotlanadi. Endi masalaning yechimi mavjudligi haqidagi savolga javob beramiz. Oldin $0 < \alpha < 1$ holatni ko'rib chiqamiz.

(1) tenglamaning fundamental yechimi quyidagicha aniqlanadi:

$$G_\alpha^{2\alpha/3}(x, t) = \frac{1}{3t^{1-2\alpha/3}} \begin{cases} \phi(-\frac{\alpha}{3}, \frac{2\alpha}{3}; \frac{x}{t^{\alpha/3}}), & x \leq 0, \\ -2\text{Re}[e^{2\pi i/3} \phi(-\frac{\alpha}{3}, \frac{2\alpha}{3}; e^{2\pi i/3} \frac{x}{t^{\alpha/3}})], & x > 0. \end{cases}$$

Bundan tashqari, (1) tenglamaning quyidagi maxsus yechimini aniqlaymiz:

$$V_\alpha^{2\alpha/3}(x, t) = \frac{1}{3t^{1-2\alpha/3}} \text{Im}[e^{2\pi i/3} \phi(-\frac{\alpha}{3}, \frac{2\alpha}{3}; e^{2\pi i/3} \frac{x}{t^{\alpha/3}})], x \geq 0.$$

2-teorema. Ixtiyoriy $\zeta = (\zeta_1, \zeta_2, \dots, \zeta_k)^T \in R^k$ uchun $\zeta^T \cdot (E_k - B^T B) \cdot \zeta \geq 0$, $f_j(x, t) \in C^{0,1}(B_j \times [0, T])$, $f_j(x, 0) = 0$, $\phi_j(x) \in C(\overline{B_j})$, $j = \overline{1, k+m}$ va bu funksiyalar cheksizlikda nolga aylansin. U holda 1-masalaning yagona yechimi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$u(x, t) = F(x, t) + \int_0^t U(x-0, t-\tau) M^{-1} H(\tau) d\tau,$$

bu yerda

$$F_j(x, t) = \int_{B_j} I_{0,t}^{1-\alpha} G_\alpha^{2\alpha/3}(x-\xi, t-0) \phi_j(\xi) d\xi + \int_0^t \int_{B_j} G_\alpha^{2\alpha/3}(x-\xi, t-\tau) f_j(\xi, \tau) d\xi d\tau,$$

$$U(x,t) = \begin{pmatrix} G_\alpha^{2\alpha/3}(x,t)I_k & | & 0_{k \times m} & | & 0_{k \times m} \\ 0_{m \times k} & | & G_\alpha^{2\alpha/3}(x,t)I_m & | & V_\alpha^{2\alpha/3}(x,t)I_m \end{pmatrix},$$


$$M = \begin{pmatrix} 1_{(k-1) \times 1} & -diag(a_2, \dots, a_k) & 0_{(k-1) \times m} \\ 1_{m \times 1} & -diag(a_{k+1}, \dots, a_{k+m}) & \frac{\sqrt{3}}{2} diag(a_{k+1}, \dots, a_{k+m}) \\ B & -I_m & \frac{\sqrt{3}}{2} I_m \\ \frac{1}{a_1} \dots \frac{1}{a_k} & \frac{2}{a_{k+1}} \dots \frac{2}{a_{k+m}} & 0_{1 \times m} \end{pmatrix},$$

$$H = 3 \begin{pmatrix} \frac{2\alpha}{3} D_{0,t}^{\frac{2\alpha}{3}}(a_2 F_2(0,t) - F_1(0,t)) \\ \frac{2\alpha}{3} D_{0,t}^{\frac{2\alpha}{3}}(a_3 F_3(0,t) - F_1(0,t)) \\ \dots \\ \frac{2\alpha}{3} D_{0,t}^{\frac{2\alpha}{3}}(a_{k+m} F_{k+m}(0,t) - F_1(0,t)) \\ \frac{\alpha}{3} D_{0,t}^{\frac{\alpha}{3}}(F_x^+(0,t) - B F_x^-(0,t)) \\ \left(\sum_{i=k+1}^{k+m} \frac{1}{a_i} F_{i,xx}(0,t) - \sum_{j=1}^k \frac{1}{a_j} F_{j,xx}(0,t) \right) \end{pmatrix}.$$

$\alpha = 1$ bo'lgan limit holatda shunga o'xshash natija olingan.

Birinchi bobning to'rtinchi paragrafida chekli qirrali yulduzsimon grafda berilgan Eyri tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masala qaralgan.

Aytaylik, $\Gamma_1 = \Gamma^- \cup \Gamma^+$ graf k ta kiruvchi va m ta chiquvchi qirralardan tashkil topgan bo'lsin. Graf qirralarini $B_j, j = \overline{1, k+m}$ orqali belgilaymiz (2-rasm). Kiruvchi $B_j \in \Gamma^-$ qirralarda koordinatalarni L_j dan 0 ($L_j < 0, j = \overline{1, k}$) gacha aniqlaymiz, chiquvchi $B_j \in \Gamma^+$ qirralarda esa koordinatalarni 0 dan L_i ($L_i > 0, i = \overline{k+1, k+m}$) gacha aniqlaymiz.



2 rasm. Γ_1 yulduzsimon graf.

$f = (f_1, f_2, \dots, f_{k+m})^T$, $u^- = (u_1, u_2, \dots, u_k)^T$, $u^+ = (u_{k+1}, u_{k+2}, \dots, u_{k+m})^T$ va $u = \begin{pmatrix} u^+ \\ u^- \end{pmatrix}$ bo'lsin. Γ_1 grafning har bir qirrasida vaqt bo'yicha kasr hosilali Eyri tenglamasini

$$\partial_{0t}^\alpha u_j(x,t) - \frac{\partial^3}{\partial x^3} u_j(x,t) = f(x,t), \quad 0 < t \leq T, x \in B_j, \quad (6)$$

quyidagi boshlang'ich shartlar bilan

$$u_j(x,0) = u_{0j}(x), \quad x \in \overline{B_j}, \quad j = \overline{1, k+m} \quad (7)$$

qaraylik.

Graf uchida quyidagi ulanish shartlarining bajarilishini talab qilamiz:

$$Au(0,t) = 0, \quad 0 \leq t \leq T, \quad (8)$$

$$u_x^+(0,t) = Bu_x^-(0,t), \quad 0 \leq t \leq T, \quad (9)$$

bu yerda A – matritsa

$$A = \begin{pmatrix} 1 & -a_2 & 0 & \dots & 0 & 0 \\ 1 & 0 & -a_3 & \dots & 0 & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 1 & 0 & 0 & \dots & -a_{k+m-1} & 0 \\ 1 & 0 & 0 & \dots & 0 & -a_{k+m} \end{pmatrix}$$

ko‘rinishidagi, B – esa $m \times k$ o‘lchamdagi o‘zgarmas matritsalar.

Bundan tashqari, grafning tarmoqlanish nuqtasida quyidagi Kirxgoff shartlari bajarilsin:

$$C^- \frac{\partial^2}{\partial x^2} u^-(x,t) \Big|_{x=0} = C^+ \frac{\partial^2}{\partial x^2} u^+(x,t) \Big|_{x=0}, \quad 0 \leq t \leq T, \quad (10)$$

bu yerda $C^- = (\frac{1}{a_1}, \frac{1}{a_2}, \dots, \frac{1}{a_k})$, $C^+ = (\frac{1}{a_{k+1}}, \dots, \frac{1}{a_{k+m}})$.

Grafning chegaraviy nuqtalarida quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$u(x,t) \Big|_{\partial\Gamma} = \varphi(t), \quad \frac{\partial}{\partial x} u^-(x,t) \Big|_{\partial\Gamma_1} = \phi(t), \quad 0 \leq t \leq T, \quad (11)$$

bu yerda $\varphi = (\varphi_1, \varphi_2, \dots, \varphi_{k+m})^T$, $\phi = (\phi_1, \phi_2, \dots, \phi_k)^T$ berilgan funksiyalar.

$Q_2(\Gamma) = \{u = (u_1, u_2, \dots, u_{k+m}) : u_j(x,t) \in C^{3,0}(B_j \times (0, T]), D_{0,t}^\alpha u_j \in C(B_j \times (0, T]),$

$$u_j \in C^{1,0}(\overline{B_j} \times [0, T]), \quad j = \overline{1, k},$$

$$u_{j,x} \in C((B_j \cup \{0\}) \times [0, T]), \quad j = \overline{k+1, k+m},$$

$$u_{j,xx} \in C((B_j \cup \{0\}) \times [0, T]), \quad j = \overline{1, k+m}\}.$$

bo‘lsin.

2-masala. $\Gamma_1 \times [0, T]$ sohada (6) tenglamaning (7) – (11) shartlarni qanoatlantiruvchi $Q_2(\Gamma_1)$ sinfga tegishli yechimi topilsin.

3-teorema. $(B^T B - E)$ simmetrik matritsa ixtiyoriy $\zeta = (\zeta_1, \zeta_2, \dots, \zeta_k)^T \in R^k$ uchun $\zeta^T \cdot (E_k - B^T B) \cdot \zeta \geq 0$ shartni qanoatlantirsin. U holda agar 2-masala yechimga ega bo‘lsa, bu yechim yagonadir.

Teorema energiya integrali metodi bilan isbotlangan.

Yechim mavjudligi haqidagi teoremani isbotlashda potentsiallar metodi qo'llanilgan. Chegaraviy shartlar va grafning ichki uchidagi shartlarni qanoatlantirgan holda ikkinchi tur Volterra integral tenglamalari sistemasi olingan va bu sistemaning yechimga ega ekanligi ko'rsatilgan.

4-teorema. *Ixtiyoriy* $\zeta = (\zeta_1, \zeta_2, \dots, \zeta_k)^T \in R^k$ uchun $\zeta^T \cdot (E_k - B^T B) \cdot \zeta \geq 0$, $u_j^0(x) \in C(\overline{B_j})$, $f_j(x, t) \in C^{0,1}(\overline{b_j} \times [0, T])$, $f_j(x, 0) = 0$, $j = \overline{1, k+m}$, $\varphi(t)$ va $\phi(t)$ funksiyalar $[0, T]$ da uzluksiz differensallanuvchi bo'lsin. U holda 2-masala yagona yechimga ega bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida vaqt bo'yicha kasr hosilali diffuzion-to'lqin tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar qaralgan. **Birinchi paragrafda** teng qirrali grafda berilgan kasr hosilali diffuziya tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarning Grin funksiyalari qurilgan.

Aytaylik, $\Gamma = (E, V)$ chekli, teng qirrali, bog'lamli graf bo'lsin. Bunda $E = \{b_k\}_{k=1}^N$ - qirralar to'plami, V - graf uchlari to'plami. $u: \Gamma \rightarrow R$ grafda aniqlangan funksiya, $u|_{b_k} = u_k$ bo'lsin. Bizga bu funksiyani $u = (u_1, u_2, \dots, u_N)$ ko'rinishda belgilash qulay. Grafda Laplas operatorini quyidagicha aniqlaymiz:

$$\Delta_E u = \left(\frac{\partial^2 u_1}{\partial x_1^2}, \frac{\partial^2 u_2}{\partial x_2^2}, \dots, \frac{\partial^2 u_N}{\partial x_N^2} \right).$$

Γ grafda quyidagi subdiffuziya tenglamasini qaraylik

$$D_{0,t}^\alpha u(x, t) - \Delta_E u(x, t) = f(x, t), \quad 0 < t \leq T, \quad (12)$$

bu yerda $0 < \alpha < 1$, Quyidagi boshlang'ich shartlar bajarilsin

$$\lim_{t \rightarrow 0} I_{0,t}^{1-\alpha} u(x, t) = \varphi(x), \quad x \in \Gamma. \quad (13)$$

Graf qirralari ulanish nuqtasida $u \in C(\Gamma)$ uzluksizlik sharti va quyidagi Kirxgoff shartlari bajarilsin:

$$\Delta_v u = 0, \quad v \in V \setminus \partial\Gamma, \quad 0 < t \leq T, \quad (14)$$

bu yerda $\Delta_v f := \sum_{b_k \sim v} \frac{1}{w_k} \sigma_{b_k, v} \frac{\partial f_k(x_k)}{\partial x_k} \Big|_v$ - Neyman-Kirxgoff operatori, $w_k = const > 0$.

Chegaraviy nuqtalarda quyidagi Dirixle chegaraviy shartlaridan

$$u(x, t) \Big|_{\partial\Gamma} = \psi(x, t), \quad x \in \partial\Gamma, \quad 0 < t \leq T \quad (15)$$

yoki quyidagicha aralash chegaraviy shartlardan

$$\begin{aligned} u(x, t) \Big|_{D_1} &= \psi(x, t), \quad x \in D_1, \quad 0 < t \leq T, \\ u_x(x, t) \Big|_{D_2} &= \phi(x, t), \quad x \in D_2, \quad 0 < t \leq T, \end{aligned} \quad (16)$$

foydalanamiz, bu yerda $D_1 \cup D_2 = \partial\Gamma$, $D_1 \cap D_2 = \emptyset$.

3-masala. (12) tenglamaning (13) – (15) shartlarni qanoatlantiruvchi regulyar yechimini toping.

Bu yerda masalaning regulyar yechimi deganda ushbu sinfdan bo'lgan yechimni tushunamiz:

$$Q_3(\Gamma) = \{u = (u_1, \dots, u_m) : D_{0,t}^\alpha u, \Delta_E u \in C(\Gamma_0 \times (0, T)), \\ t^{1-\alpha} u \in C(\Gamma \times [0, T]), t^{1-\alpha} u_{k,x} \in C(\bar{b}_k \times [0, T]), k = \overline{1, N}\},$$

4-masala. (12) tenglamaning (13) – (14) va (16) shartlarni qanoatlantiruvchi regulyar yechimini toping.

Bu yerda masalaning regulyar yechimi deganda ushbu sinfdan bo'lgan yechimni tushunamiz:

$$Q_4(\Gamma) = \{u = (u_1, \dots, u_m) : \Delta_E u, D_{0,t}^\alpha u \in C(\Gamma_{\text{int}} \times (0, T)), \\ t^{1-\alpha} u \in C(\Gamma \times [0, T]), t^{1-\alpha} u_{k,x} \in C(\bar{b}_k \times [0, T]), k = \overline{1, N}\}$$

Masalaning yechimi yagonaligi energiya integrallari metodi bilan isbotlangan.

Yuqorida keltirilgan masalalarni ikki xil grafda qaraymiz: 1) teng qirrali yulduzsimon grafda; 2) zinapoyasiman grafda.

Oldin zinapoyasimon grafda Grin funksiyalarini quramiz. Γ yulduzsimon graf bitta O nuqtada ulangan m ta teng qirralarga ega bo'lsin. Har bir qirradagi koordinatani bu qirrani $[0, L]$ kesmaga izometrik akslantirish yordamida aniqlaymiz. Bunda, har bir qirrada O nuqtaning koordinatasini nolga teng deb olamiz. (15) chegaraviy shartlarni $u_j(L, t) = \psi_j(t)$, $j = \overline{1, m}$, ko'rinishda yozib olamiz.

5-teorema. Aytaylik, $\varphi(x) \in C(\Gamma)$, $t^{1-\alpha} \psi_j(t) \in C[0, T]$, ($j = \overline{1, m}$, $T > 0$) va $t^{1-\alpha} f(x, t) \in C^{0,1}(\Gamma \times [0, T])$ bo'lsin. U holda 3-masalaning yagona yechimi ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$u(x, t) = -\int_0^t (G_\xi(x, t; L, \tau) u(L, \tau) +) d\tau - \int_0^L \varphi(\xi) G(x, t; \xi, \tau) d\xi - \\ - \int_0^t \int_0^L G(x, t; \xi, \tau) f(\xi, \tau) d\xi d\tau,$$

bu yerda $u = (u_1, \dots, u_m)^T$, $f = (f_1, \dots, f_m)^T$ va $G(x, t; \xi, \tau)$ Grin funksiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$G = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} (-1)^n M^n (\Gamma(x - \xi + 2nL, t - \tau) + M\Gamma(x + \xi + 2nL, t - \tau)),$$

bu yerda $\Gamma(s, t) = \frac{1}{2} t^{\alpha/2-1} e_{1, \alpha/2}^{1, \alpha/2} \left(-\frac{|s|}{t^{\alpha/2}} \right)$, $M = SK^{-1}$,

$$K = \begin{pmatrix} w_1 & w_1 & \dots & w_1 & 1 \\ -w_2 & 0 & \dots & 0 & 1 \\ 0 & -w_3 & \dots & 0 & 1 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \\ 0 & 0 & \dots & -w_m & 1 \end{pmatrix}, \quad S = \begin{pmatrix} -w_1 & -w_1 & \dots & -w_1 & 1 \\ w_2 & 0 & \dots & 0 & 1 \\ 0 & w_3 & \dots & 0 & 1 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \\ 0 & 0 & \dots & w_m & 1 \end{pmatrix}.$$

Endi 4-masala uchun yulduzsimon grafda Grin funksiyasini keltiramiz. Γ grafning dastlabki k ta ($k < m$) qirrasining chegaraviy uchlari D_1 ni tashkil qilsin.

6-teorema. Aytaylik, $\varphi(x) \in C(\Gamma)$, $t^{1-\alpha}\psi_i(t) \in C[0, T]$, $i = \overline{1, k}$, $t^{1-\alpha}\phi_j(t) \in C[0, T]$, $j = \overline{k+1, m}$ va $t^{1-\alpha}f(x, t) \in C^{0,1}(\Gamma \times [0, T])$ bo'lsin. U holda 4-masalaning yagona yechimi ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$u(x, t) = \int_0^t G_1^{(N)} \left(x, t; L, \tau \right) \frac{\partial u_N(\xi, \tau)}{\partial \xi} \Big|_{\xi=L} - G_1^{(D)}(x, L; t, \tau) u_D(L, \tau) d\tau - \int_0^L \varphi(\xi) G_1(x, t; \xi, \tau) d\xi - \int_0^t \int_0^L G_1(x, t; \xi, \tau) F(\xi, \tau) d\xi d\tau,$$


bu yerda

$$G_1(x, t; \xi, \tau) = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} \Phi^n M^n (\Gamma(x - \xi + 2nL, t - \tau) + M\Gamma(x + \xi + 2nL, t - \tau)),$$

$$G_1^{(D)} = \begin{pmatrix} G_1^{11} & G_1^{12} & \dots & G_1^{1m} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ G_1^{k1} & G_1^{k2} & \dots & G_1^{km} \\ 0 & 0 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & 0 \end{pmatrix}, \quad G_1^{(N)} = \begin{pmatrix} 0 & 0 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & 0 \\ G_1^{k+1,1} & G_1^{k+1,2} & \dots & G_1^{k+1,m} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ G_1^{m1} & G_1^{m2} & \dots & G_1^{mm} \end{pmatrix},$$

$$\Phi = \begin{pmatrix} -E_k & 0 \\ 0 & E_{m-k} \end{pmatrix}, \quad u_D = (u_1, \dots, u_k, 0, \dots, 0)^T, \quad u_N = (0, \dots, 0, u_{k+1}, \dots, u_m)^T.$$

Endi $3m - 1$ ta teng qirraga ega bo'lgan ($N = 3m - 1$) zinapoyasimon grafni qaraylik (3-rasm). Graf qirralarining koordinatalarini qirraning 0 dan L gacha bo'lgan intervalga izometrik akslantirish yordamida aniqlaymiz. Graf qirralarini B_k , $k = \overline{1, 3m - 1}$ orqali belgilaymiz (3-rasm).



3 rasm. $3m - 1$ ta qirrali zinapoyasimon graf (m - toq son).

Aytaylik, m toq son bo'lsin. Chegaraviy shartlarni quyidagicha yozib olamiz

$$u_1(0, t) = \psi_1(t), \quad u_{3m-1}(0, t) = \psi_2(t),$$

$$u_2(L,t) = \psi_3(t), \quad u_{3m-2}(L,t) = \psi_4(t), \quad 0 < t \leq T.$$

7-teorema. *Aytaylik, m toq son, Γ - yuqorida tasvirlangan $3m-1$ teng qirrali zinapoyasimon graf, $t^{1-\alpha}\psi_i(t) \in C[0,T]$, $i = \overline{1,4}$, $\varphi_j(x) \in C[0,L]$, $j = \overline{1,3m-1}$ u $t^{1-\alpha}f(x,t) \in C^{0,1}(\Gamma \times [0,T])$ bo'lsin. U holda 3-masala quyidagi ko'rinishdagi yagona yechimga ega bo'ladi*

$$u(x,t) = \int_0^t G_\xi(x,t;0,\tau)U^{1,3m-1}(0,\tau)d\tau - \int_0^t G_\xi(x,t;L,\tau)U^{2,3m-2}(L,\tau)d\tau - \int_0^L \varphi(\xi)G(x,t;\xi,\tau)d\xi - \int_0^t \int_0^L G(x,t;\xi,\tau)F(\xi,\tau)d\xi d\tau,$$

bu yerda $U^{i,j} = (0,0,\dots,0,u_i,0,\dots,0,u_j,0,\dots,0)^T$, $F = (f_1,\dots,f_{3m-1})^T$,

$$G = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} \left(M^n \Gamma(x - \xi + 2nL, t - \tau) + (DC^{-1})^n \Gamma(x + \xi + 2nL, t - \tau) \right),$$

$$M = DC^{-1}TQP^{-1}T^{-1},$$

$$D = \begin{pmatrix} 1 & 0 & \dots & 0 & 0 \\ 0 & \tilde{D}_0 & \dots & 0 & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & \tilde{D}_{(m-3)/2} & 0 \\ 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \end{pmatrix}, \quad \tilde{D}_j = \begin{pmatrix} w_{6j+2} & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ -w_{6j+3} & w_{6j+3} & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & w_{6j+4} & 0 & 1 \\ 0 & -w_{6j+5} & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & -w_{6j+6} & w_{6j+6} & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & -w_{6j+7} & 1 \end{pmatrix},$$

$$C = \begin{pmatrix} 1 & 0 & \dots & 0 & 0 \\ 0 & \tilde{C}_0 & \dots & 0 & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & \tilde{C}_{(m-3)/2} & 0 \\ 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \end{pmatrix}, \quad \tilde{C}_j = \begin{pmatrix} -w_{6j+2} & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ w_{6j+3} & -w_{6j+3} & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & -w_{6j+4} & 0 & 1 \\ 0 & w_{6j+5} & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & w_{6j+6} & -w_{6j+6} & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & w_{6j+7} & 1 \end{pmatrix},$$

$$P = \begin{pmatrix} 1 & 0 & \dots & 0 & 0 \\ 0 & \tilde{P}_0 & \dots & 0 & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & \tilde{P}_{(m-3)/2} & 0 \\ 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \end{pmatrix}, \quad \tilde{P}_j = \begin{pmatrix} w_{6j+1} & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ -w_{6j+3} & w_{6j+3} & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & -w_{6j+4} & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & w_{6j+5} & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & -w_{6j+6} & w_{6j+6} & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & -w_{6j+8} & 1 \end{pmatrix},$$

$$Q = \begin{pmatrix} 1 & 0 & \dots & 0 & 0 \\ 0 & \tilde{Q}_0 & \dots & 0 & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & \tilde{Q}_{(m-3)/2} & 0 \\ 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \end{pmatrix}, \tilde{Q}_j = \begin{pmatrix} -w_{6j+1} & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ w_{6j+3} & -w_{6j+3} & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & w_{6j+4} & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & -w_{6j+5} & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & w_{6j+6} & -w_{6j+6} & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & w_{6j+8} & 1 \end{pmatrix}$$

va $(3m-1) \times (3m-1)$ o'lchamli T matrisa esa birlik matrisada har bir $j = \overline{0, (m-3)/2}$ da $6j+1$ va $6j+2$ nomerli satrlarni almashtirishdan hosil bo'lgan matrisa.

m juft son bo'lgan holatda ham zinapoyasimon graf uchun Grin funksiyasi shunga o'xshash qurilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida vaqt bo'yicha Hilfer kasr hosilali psevdosubdiffuziya tenglamasining bir qiymatli yechimga ega ekanligi masalasi qaralgan. Ba'zi yordamchi tushunchalarni kiritamiz.

Quyidagi uzluksiz funksiyalar fazolarini kiritamiz

$$C_\gamma[a, b] = \{f : (a, b) \rightarrow \mathbb{R} : (t-a)^\gamma f(t) \in C[a, b]\}, 0 \leq \gamma < 1,$$

va

$$C_\gamma^n[a, b] = \{f \in C^{n-1}[a, b] : f^{(n)} \in C_\gamma, n \in \mathbb{N}\}, C_\gamma^0[a, b] = C_\gamma[a, b].$$

Bu fazolarda norma quyidagicha kiritiladi

$$\|f\|_{C_\gamma} = \|(t-a)^\gamma f(t)\|_C \quad \text{va} \quad \|f\|_{C_\gamma^n} = \sum_{k=0}^{n-1} \|f^{(k)}\|_C + \|f^{(n)}\|_{C_\gamma}.$$

Bu fazolar quyidagi xossalarni qanoatlantiradi.

- a) $C_0^0[a, b] = C[a, b]$;
- b) $C_\gamma^n(a, b) \subset AC^n[a, b]$;
- b) $C_{\gamma_1}[a, b] \subset C_{\gamma_2}[a, b], 0 \leq \gamma_1 < \gamma_2 < 1$.

α tartibli va t bo'yicha μ tipli Hilfer kasr hosilasi $D_{0+}^{\alpha, \mu}$ deb quyidagicha aniqlangan operatorga aytiladi:

$$(D_{0,t}^{\alpha, \mu} u)(t) = I_{0,t}^{\mu(l-\alpha)} \frac{d^l}{dt^l} (I_{0,t}^{(1-\mu)(l-\alpha)} u)(t), \quad l-1 < \alpha < l, \quad 0 \leq \mu \leq 1, \quad l \in \mathbb{N},$$

bu yerda o'ng tomondagi integrallar va hosilalarning mavjudligi talab etiladi.

$D_{0,t}^{\alpha, \mu}$ hosilani Riman-Liuvill va Kaputo hosilalarning interpolatsiyasi sifatida

ham qarash mumkin: $D_{0,t}^{\alpha, \mu} = \begin{cases} D_{0,t}^\alpha, & \mu = 0, \\ \partial_{0,t}^\alpha, & \mu = 1. \end{cases}$

Aytaylik, $\Gamma = (V, E)$ – bog'lamli chekli metrik graf bo'lsin, bu yerda $V = \{\nu_k\}_1^n$ – graf uchlar to'plami, $E = \{b_k\}_{k=1}^j$ esa oxirlari V ga tegishli nuqtalarda bo'lgan

qirralar (intervallar) to‘plami. Shuningdek, $\{q_1, q_2, \dots, q_{m_1}\} = \partial\Gamma \subset V$ – grafning chegaraviy uchlari to‘plami bo‘lsin. Grafning b_k qirrasida x_k koordinatani bu qirraning $(0, L_k)$, $k = 1, 2, \dots, j$ ga izometrik akslantirishi yordamida aniqlaymiz.

Yuqorida aniqlangan Γ grafning har bir qirrasida quyidagi kasr hosilali differensial tenglamani qaraymiz

$$D_{0,t}^{\alpha,\mu} u^{(k)}(x,t) = a_1 u_{xx}^{(k)}(x,t) + a_2 D_{0,t}^{\alpha,\mu} u_{xx}^{(k)}(x,t) + a_3 u^{(k)}(x,t) + f^{(k)}(x,t), \quad (17)$$

$x \in b_k, 0 < t < T, k = \overline{1, j}$, bu yerda $D_{0+}^{\alpha,\mu}$ – Hilfer kasr hosila operatori $0 < \alpha < 1, 0 \leq \mu \leq 1, a > 0, b > 0, c \leq 0$.

Grafda aniqlangan funksiya uchun $u = (u^{(1)}, u^{(2)}, \dots, u^{(j)})^T$, $f = (f^{(1)}, f^{(2)}, \dots, f^{(j)})^T$ belgilashdan foydalanamiz.

Endi tenglama o‘ng tomonini aniqlashga oid birinchi teskari masalani ta‘riflaymiz. $f^{(k)}(x,t) = f^{(k)}(x)g(t)$ bo‘lsin. Bunda $f^{(k)}(x)$ ma‘lum funksiyalar, $g(t)$ esa noma‘lum, $g(t) > 0, 0 \leq t \leq T$ deb qaraymiz.

5-masala. (17) tenglamani va quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $\{u^{(k)}(x,t), f^{(k)}(x)\}$ funksiyalar topilsin:

$$\begin{aligned} 1) \quad & t^{1-\gamma} u^{(k)}(x,t) \in C_{x,t}^{1,\gamma}([0, l_k] \times [0, T]), \\ & D_{0t}^{\alpha,\mu} u_{xx}^{(k)}(x,t), D_{0t}^{\alpha,\mu} u^{(k)}(x,t) \in C((0, l_k) \times (0, T)), \\ & t^{1-\gamma} u_{xx}^{(k)}(x,t) \in C((0, l_k) \times [0, T]), \gamma = \alpha + \mu - \alpha\mu, \quad k = \overline{1, j}; \end{aligned}$$

2) grafning tarmoqlanish nuqtalarida (ichki uchlarda) yechim quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

(A) *Uzluksizlik sharti.* Har bir ichni ν uchda $b_k \sim \nu$ shartni qanoatlantiruvchi k lar uchun $u^{(k)}(x,t)$ funksiyalarning shu uchdagi qiymatlari o‘zaro teng;

(B) *Tarmoqlanish nuqtasida local oqim saqlanish qonuni:* har bir ichki ν uchda barcha $u^{(k)}(x,t), b_k \sim \nu$, funksiyalarning bir tomonlama hosilalari yig‘indisi nolga teng:

$$\sum_{b \sim \nu} \sigma_{b,\nu} u_x^{(k)}(x,t)|_{\nu} = 0, \quad \nu \in V \setminus \partial\Gamma, t \in (0, T] \quad (18)$$

3) chegaraviy shartlarni:

$$u_x^{(k)}(x,t)|_{q_k} = 0, q_k \in \partial\Gamma, t \in (0, T], k = \overline{1, m_1}; \quad (19)$$

4) boshlang‘ich shartlarni

